


Tadbirkorlikni rivojlantirishda hududlardagi qo‘shimcha imkoniyatlar tahlil qilindi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-avgust kuni mutlaqo yangi tizim, tartib va yondashuvlar asosida iqtisodiy faollikni oshirish hamda har bir tuman va shaharga qo‘shimcha zaxira yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Karantin talablari yumshatilgani tufayli mamlakatimizda iqtisodiy faollik osha boshladi. Savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalardagi tadbirkorlik faoliyati tiklanib, daromadlarni ko‘paytirishga imkoniyat paydo bo‘ldi.

Yig‘ilishda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha shahar va tumanlardagi qo‘shimcha imkoniyatlar tahlil qilinib, ularni ishga solish choralari belgilandi.



Joriy yil 1-dekabrga qadar 500 milliard so‘m qo‘shimcha zaxira shakllantirishga to‘liq imkoniyat borligi aniq hisob-kitob qilingan. Ushbu mablag‘lar ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlash uchun respublika byudjetidan berilayotgan pullarga qo‘shimcha resurs bo‘ladi.

Avqust oyida 20 ming, sentyabrda 26 mingta korxonalar faoliyatini to‘liq quvvatga olib chiqish, ularning pandemiya tufayli to‘planib qolgan mahsulotlarini sotish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligi ta‘kidlandi. Buning uchun yirik shaharlarda qo‘shimcha savdo joylari tashkil etish, talab yuqori bo‘lgan iste‘mol mahsulotlarini to‘liq elektron savdo tizimlariga joylashtirish vazifasi yuklatildi. Xomashyo olib kelish yoki eksportda qiynalayotgan korxonalarining transport-logistika masalalarini hal etish bo‘yicha topshiriq berildi.

Viloyat hokimlari Biznes-ombudsman, Bojxona qo‘mitasi bilan birga 1-oktyabrgacha tadbirkorlar tomonidan

keltirilgan texnologik uskunani ishga tushirish hamda ular uchun yer, bino, elektr, gaz va boshqa muhandislik-kommunikatsiya masalalarini hal qilish zarurligi qayd etildi.

Hududlarda tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish bo'yicha zaxiralar ko'pligi ko'rsatib o'tildi. Misol uchun, davlat tomonidan ajratilgan subsidiya va kam foizli kredit evaziga Forish tumanida 100 ta quduq qazilib, oborotdan chiqib ketgan 2 ming 700 gektar yerda 6 ta tokzor tashkil etildi. Buning natijasida 2,5 ming yangi ish o'rni yaratilib, byudjetga qo'shimcha tushum ta'minlanadi.

Shuningdek, Taxiatosh tumanida Issiqlik elektr stansiyasining tashlanma issiq suvidan foydalanib, 54 gektarda 7 ta gidroponika issiqxonasi barpo etilmoqda. Buning hisobiga joriy yilda 500 ta ish o'rni yaratiladi va qo'shimcha soliq manbai paydo bo'ladi.

Davlatimiz rahbari barcha hududlarda shunday imkoniyatlar borligini ta'kidlab, ularni oqilona ishga solish, kooperatsiya orqali yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi.

Yana bir zaxira - erkin iqtisodiy zonalaridagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlangan 1 ming gektardan ziyod bo'sh yer maydonlari. Ularda 17 ming ish o'rni yaratiladigan 120 ta loyihani amalga oshirish mumkin. Yig'ilishda ushbu loyihalarni puxta shakllantirib, tezroq ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

"Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va shu orqali qo'shimcha zaxiralarni shakllantirish topshirig'i berildi. Bunday qo'shimcha zaxiralar, shu jumladan, aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlash uchun muhim manba bo'ladi.



Qo'shimcha zaxirlarning sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va bu borada mahalliy kengashlar faoliyatini yana-da kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Bosh vazir o'rinbosariga ularni talab yuqori bo'lgan kasblar va tadbirkorlikka o'qitish, shu asosda biznesini yo'lga

qo'yishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibini joriy etish vazifasi yuklatildi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida, mamlakatimizda joriy etilgan "temir daftar"lar singari, ishsiz yoshlar bo'yicha alohida ("Yoshlar daftari"), ishsiz va boquvchisiz xotin-qizlar bo'yicha alohida ("Ayollar daftari") ro'yxatlar shakllantirib, har biri bilan yangi tizim, yangicha tartibda manzilli ishlash muhimligi ta'kidlandi.

Videoselektor yig'ilishida so'zga chiqqan hokimlar tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'shimcha zaxiralarni shakllantirishga doir rejalari yuzasidan axborot berdi.





Manba